

Abduxalil Mavrulov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası
professori, tarix fanlari doktori
E-mail: mavrulov54@icloud.com*

JAMIYAT TARAQQIYOTI VA IJTIMOYIY-MA'NAVY MUHIT UYG'UNLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy taraqqiyotning bugungi sharoitida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar bardavomligini ta'minlash, odamlarda rozilik hissini shakllantirish, jamiyat barqarorligini yuzaga chiqarishda ijtimoiy-ma'naviy muhitning o'rni benihoya katta ekanligi haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari, islom ta'limotidagi adolat, yaxshilik, ezgulik fazilatlarininig targ'ibi hamda Tasavvufdagi komil inson masalalariga alohida to'xtalgan. Buyuk ajdodlarimiz asarlaridan namunalari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-ma'naviy muhit, Yangi O'zbekiston, komil inson, bunyodkor g'oya, insoniy fazilatlar.*

THE HARMONY BETWEEN SOCIETAL DEVELOPMENT AND THE SOCIO-SPIRITUAL ENVIRONMENT

Abstract. *This article examines the crucial role of the socio-spiritual environment in ensuring the sustainability of state reforms under contemporary conditions of social development, fostering public consensus, and maintaining societal stability. Special attention is also paid to the promotion of the principles of justice, goodness, and benevolence in Islamic teachings, as well as to the concept of the perfect human being in Sufism. Relevant examples from the works of prominent historical figures are presented.*

Keywords: *societal development, socio-spiritual environment, New Uzbekistan, perfect human being, constructive idea, human virtues.*

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan o'zgarishlar, o'zaro manfaatlar kurashi, sivilizatsiyalararo kelishmovchiliklar, davlatlararo va mintaqalararo

ziddiyatlar, milliy qadriyatlarning qadsizlanishi, madaniyatlarning haddan tashqari siyoslashuvi, qator mamlakatlar tashqi siyosatidagi gegemonlik kayfiyati, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida insoniyat oldida tobora ko'payib borayotgan ichki va tashqi tahdidlar har qanday jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligiga o'zining kuchli ta'sirini o'tkazmoqda.

Ana shunday sharoitda har bir davlat oldida turgan eng muhim o'ta dolzarb masalalardan biri – jamiyatda mustahkam, barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishdan iboratdir. Ayni paytda yana shuni ham qayd etish lozimki, ijtimoiy-ma'naviy muhit o'z-o'zidan shakllanadigan, osonlik bilan erishiladigan natija emas.

Bu jarayon o'ta murakkab bo'lib, shaxs, davlat va jamiyatning o'zaro hamkorligi, chuqur o'ylangan hamda ilmiy xulosalarga asoslangan siyosat orqali muhim natijalarga erishish mumkin. Shuning uchun ham mamlakat rahbari "bugungi o'zgarishlar – vaqtinchalik kompaniya, erta-indin unutiladi", deb o'ylaydiganlarning yanglishishini ta'kidlagan holda, Yangi O'zbekistonda uzoqni ko'zlab yuritilayotgan pragmatik, xalqchil siyosat, uning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaratish ekanligiga alohida urg'u beradi. "Shu bilan birga, – deb ta'kidlaydi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, – jamiyat va davlat taraqqiyotining barqarorligiga siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, ekologik va boshqa sohalarni o'zaro uyg'unlashgan, muvozanatli va integratsiyalashgan holda rivojlantirish orqali erishish mumkin. Bunda turli yo'nalishlardagi maqsad va vazifalarni o'zaro uyg'unlashtirish, ularning bir-birini to'ldirish va qo'llab-quvvatlashiga erishish darkor" [1, 39-b].

Shu nuqtayi nazardan ijtimoiy taraqqiyotning bugungi sharoitida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar bardavomligini ta'minlash, odamlarda rozilik hissini shakllantirish, jamiyat barqarorligini yuzaga chiqarishda ijtimoiy-ma'naviy muhitning o'rni benihoya katta. Haqiqatdan ham shunday. Gap shundan iboratki, jahonda yuz berayotgan jiddiy mafkuraviy-g'oyaviy kurashlar,

ma'naviyatsizlik, axloqsizlik, mafkuraviy bo'shliq kabi ichki va tashqi tahdidlar hech shubhasiz, har qanday davlatni va millatni yemiradi, o'sha joyda ijtimoiy-ma'naviy muhit beqarorligini vujudga keltiradi. Shu ma'noda jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitining sog'lomligi mamlakat va millat taraqqiyotining muhim belgilari hisoblanadi.

Bugungi kunda "ijtimoiy-ma'naviy muhit" tushunchasi ko'p bora tilga olinsada, ammo olim va mutaxassislar tomonidan uning umume'tirof etilgan tushunchasi mavjud emasligini qayd etish kerak, deb o'ylaymiz. hattoki turli adabiyotlar, ensiklopedik lug'atlarda ham u to'g'rida muayyan fikr olish qiyin.

Ayrim holatlarda, rasmiy hujjatlarda, turli qonunchilik va boshqa manbalarda "ijtimoiy-ma'naviy muhit" tushunchasi ishlatilsada, biroq, uning ta'rifi berilmagan. Xuddi shunday, mazkur masalaga oid qator ilmiy, ilmiy-ommabop asarlarda ham ushbu hodisa o'z ta'rifiga ega emas. Ko'p hollarda "ijtimoiy-ma'naviy muhit" tushunchasi "ijtimoiy muhit" tarzda talqin qilinadi.

Masalan, "Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar lug'ati"da "Ijtimoiy muhit" to'g'risida kichik ma'lumot beriladi. Unda ta'kidlanishicha, ijtimoiy muhit—insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi asosiy bilim, tajriba va ko'nikmalarini, xususiyatlarini shakllantiradigan moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar majmuasi.

Ijtimoiy muhit keng ma'noda, ijtimoiy-iqtisodiy tizimni, ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy institutlar majmui, ijtimoiy ong shakllari va jamiyat madaniyatini qamrab oladi (makromuhit). Tor ma'noda, inson bevosita yashaydigan, mehnat qiladigan oila va jamoa, ta'lim maskanlarini o'z ichiga oladi (mikromuhit). Ijtimoiy muhit shaxs ma'naviyatining shakllanishi va rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi [2, 194-b].

Nazarimizda, mazkur ta'rifda, "ijtimoiy-ma'naviy muhit" tushunchasi o'zining to'liq ifodasini topa olmagan. Professor A.Erkayev esa "ijtimoiy-ma'naviy muhit" tushunchasini asosan "ma'naviy muhit" tushunchasi asnosida ko'rib chiqadi. Ayni paytda olim ma'naviy muhitni ma'naviyat, ma'naviy omillar bilan uyg'unlikda ko'radi. Shuningdek, bu jarayonda "ma'naviyat" fenomeniga ustuvor ahamiyat

qaratadi. “Insonga jamiyat tomonidan quyiladigan mafkuraviy talablar – deydi, – u axloqiy, huquqiy, estetik, diniy me’yorlar, ma’naviy muhitni tashkil qiladi. Ma’naviy muhit jamiyatning hissiy, aqliy va jismoniy kamolotda erishgan o’rtacha saviyasi asosida vujudga kelgan talablari va ularning amalga oshish tartibidir. Muhit, odatda, barqarorlikka, bir tekislik va bir xillikka intiladi [3, 42-b].

Professor M.Qahhorova o’z izlanishlarida ijtimoiy-ma’naviy muhit masalasiga muayyan darajada e’tibor bergan holda, ko‘proq mazkur jarayonni jamiyat ma’naviy-axloqiy muhitdagi muammolar va uning yechimlari bilan bog‘liqlikda ko‘radi. Jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhit makro darajada odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlarini, ijtimoiy-ma’naviy ongini belgilovchi omillar majmuini, mikro darajada esa, inson bevosita yashaydigan oila, mahalla jamoasi, u ta’lim tarbiya oladigan, mehnat qiladigan bevosita ham bilvosita uning muayyan darajadagi milliy, ma’naviy, mafkuraviy immunitetini o‘stiradigan maskanlarini o‘z ichiga oladi [4].

“Ijtimoiy-ma’naviy muhit” masalasi mamlakatimizdagi qator olimlar tomonidan turli nuqtayi nazarlarda tadqiq etilgan. Ayrim asarlarda mazkur tushuncha siyosiy, ba’zan iqtisodiy, ko‘proq ijtimoiy, shakllangan milliy qadriyatlar asnosida o‘rganilganini qayd etish mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlarni o‘rganish natijasida ijtimoiy-ma’naviy muhit tushunchasida ko‘proq iqtisodiy omil, xususan, aholining turmush tarzi, yashash darajasi, shuningdek, hayot sifati, jamiyatda aniq makon va zamonda shakllangan ijtimoiy-ruhiy va salomatlik holatlar ko‘proq e’tiborga olingani ko‘rsa bo‘ladi.

Har qanday jamiyatda uning ijtimoiy-ma’naviy muhiti darajasini aniqlaydigan yagona indikatorlar mavjud emasligini e’tiborga olish lozim. Chunki, ayrim hollarda ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini aniqlashda asosan aholi turmush darajasi, xususan, aholining daromadlari, ish bilan ta’minlanganlik hamda mehnat sharoitlari, shaxs erkinligi, oziq-ovqat mahsulotlarining sifati kabi masalalarga diqqat qaratiladi.

J.Yaxshilikov va N.Muhammadiyevlar esa “Ijtimoiy muhit” deb kishilar o‘rtasida adolatparvarlik tamoyillari asosida tashkil etilgan ijtimoiy-iqtisodiy,

siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy munosabatlarning qanchalik darajada uyg'unlashgan tarzda harakat qilishlari natijasida jamiyatda vujudga kelgan holatga aytiladi", deb qayd etishadi [5, 64-b].

Shuningdek, ularning qayd etishlaricha, bunyodkor g'oya va mafkuralar tinchlik va siyosiy barqarorlik hukm suradigan ijtimoiy muhitni yaratishga harakat qiladi, vayronkor g'oya va mafkuralar esa jamiyatda yechimini topish mushkul bo'lgan ziddiyatlar, urushlar, janjallar, g'iybat va bo'htonlar, zo'ravonlik kabi qusurlar ildiz otgan ijtimoiy muhitni yaratishga intiladilar. Demak, jamiyatda zarur sog'lom ijtimoiy muhitni yaratmay turib muayyan g'oyalarning ustuvorligini ta'minlab bo'lmaydi. Yaratiladigan g'oyalar va mafkuralar jamiyatning siyosiy, ma'naviy va ijtimoiy sog'lom muhitiga bog'liq.

"Ijtimoiy-ma'naviy muhit" hodisasini tahlil etishning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy, ijtimoiy omillari mavjudligini deyarli barcha tadqiqotchilar e'tirof etadilar. Biroq masalaning ruhiy-psixologik jihati bilan bog'liq yana bir muhim tomoni borki, bu narsa ayrim hollarda e'tirof etilmaydi. Boshqacha so'z bilan aytganda "ijtimoiy-ma'naviy muhit" tushunchasi ostida uning eng muhim, ustuvor jihatlaridan biri sifatida "ijtimoiy kayfiyat" holatini e'tirof etish mumkin.

Bugun Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida ulkan o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, ijtimoiy-gumanitar sohalar bilan bir qatorda kishilar turmush tarzida ro'y berayotgan ijobiy hodisalar keng jamoatchilikni quvontirmoqda. Shu tufayli yurtdoshlarimizda o'tayotgan har bir kunga shukronalik, ertangi kunga mustahkam ishonch hissi ortayotganini kuzatish mumkin. Bunga jamiyat hayotining qaysidir sohasida faoliyat yuritayotgan zamondoshlarimiz yurish-turishi, xatti-harakati, fikrlashi orqali ham guvoh bo'lish mumkin.

"Ijtimoiy-ma'naviy muhit"ning qay darajada sog'lom yoki nosog'lomligi, eng avvalo, shu jamiyat a'zolarining kayfiyatida o'z aksini topadi. Kayfiyat arabchadan holat, hol, kishidagi ichki kechinma, intilish, uning ta'sirida keluvchi ruhiy holatdir. Ana shu "kayfiyat"ning ijtimoiylashuvi esa jamiyatda barqaror muhitni yuzaga

keltiradi. Oddiygina haqiqat: jamiyatda turli millat vakillari istiqomat qiladi, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanadi.

Ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, turli kasb va e'tiqoddagi bu kishilarning barchasida bir-biriga mutlaqo o'xshamagan ichki kechinmalar kuzatiladi, ular o'z tashvish va muammolariga ko'milib yashashadi. Bunday ruhiy holatga qisqa va lo'nda qilib, "ijtimoiy kayfiyat", deb ta'rif bersa bo'ladi. Lug'atlarda, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fanlarda biz ilmiy jihatdan tahlil va talqin qilayotgan bu atama uchramaydi. "Ijtimoiy kayfiyat" atamasiga yaqinroq "ijtimoiy mobillik", "ijtimoiy moslashuv", "ijtimoiy muhit" kabi so'z birikmalari ba'zan ilmiy-ommabop kitoblarda, ayrim auditoriyalarda, mutaxassilar nutqlarida uchraydi xolos.

"Ijtimoiy kayfiyat" u yoki bu mamlakat, jamiyatning muayyan vaqtda kishilar, ijtimoiy guruhlarning davlat siyosati, olib borilayotgan islohotlarning qay darajada ularning tub manfaatlariga mos ekanligini anglatadigan hodisa hisoblanadi. Binobarin, ijtimoiy kayfiyat jamiyatga moslashgan shaxslar ko'pchilik qismining ijtimoiy-ruhiy holati, mavjud tuzum to'g'risida haqqoniy, adolatli xulosa chiqarishga ko'mak beradigan, pirovard natijada shu jamiyatda qaror topgan ijtimoiy-ma'naviy muhit darajasini baholashga yordam beradigan omildir.

Ma'lumki, jamiyatda kechadigan ijtimoiy kayfiyat doimo bir xil bo'lishi mumkin emas. Bu davlat tomonidan olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatga, boshqaruv idoralari, tashkilot va muassasalarning xalq manfaatlarini yo'lida olib borayotgan faoliyatiga, islohotlarning izchilligiga ko'p jihatdan bog'liq. Ijtimoiy adolat hukm surgan, fuqarolar farovonligi ta'minlangan, ertangi kunga mustahkam ishonch uyg'ota olgan jamiyatda ijtimoiy kayfiyat ko'tarinki ruhda bo'lib, bu holat keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etiladi. Aks holda esa uning teskarisi kuzatiladi.

"Ijtimoiy-ma'naviy muhit" tushunchasi, bizning nazarimizda jamiyatda qaror topgan adolat, xususan, ijtimoiy adolat mezonlariga ham bevosita bog'liq, deyish mumkin. Jumladan, Yangi O'zbekistonda suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy,

dunyoviy davlat barpo etishning muhim shartlaridan biri sifatida ijtimoiy adolat tamoyillari asos qilib olinganini ham e'tiborga olish lozim, deb o'ylaymiz.

Mazkur holat O'zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahririda yana bir bor o'z aksini topgan. Masalan, bosh Qomusning "Muqaddima" qismida "ijtimoiy adolat" tamoyili demokratiya, erkinlik, tenglik va birdamlik kabi tamoyillar bilan bir tarzda ko'rilgani, davlat va jamiyatning oldidagi eng muhim strategik mas'uliyat adolatli jamiyatni barpo etish bilan uzviy bog'liqligi e'tirof etiladi.

Shuningdek, "ijtimoiy adolat" tamoyili ushbu muhim hujjatning 14, 19 va yana bir qancha moddalarida ham o'z aksini topgan. Masalan, 14-moddada davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplariga amalga oshirishi, 19-moddada esa imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanishi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos kelishi lozimligi alohida qayd etilgan [6, 9–12-b].

Shuni ta'kidlash kerakki, "ijtimoiy adolat tamoyili" har qanday ijtimoiy-ma'naviy muhitning yadrosi, bosh ustuni hisoblanadi. Qayerda ijtimoiy adolat tamoyili buzilsa o'sha joyda ijtimoiy-ma'naviy muhitning beqarorligi yuzaga kelaveradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "ijtimoiy-ma'naviy muhit" tushunchasini "adolatli ijtimoiy siyosat", "ijtimoiy davlat", "inson qadri" tushunchalari bilan uyg'unlikda ko'radi. "Shubhasiz, – deb qayd etadi davlat rahbari – "ijtimoiy adolat" va "inson qadri" tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy davlat qurish g'oyasining negizida, avvalo inson qadrini ulug'lash va aholiga xizmat qilishdek oliyjanob maqsad mujassam. Ushbu g'oya har bir fuqaro uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitlarini yaratish, muhtojlarga ko'mak berish hamda aholi qatlamlari orasidagi tafovutlarni kamaytirish borasida samarali siyosat yuritadigan davlat modelini yaratishni taqozo etadi" [7, 62-b].

"Ijtimoiy-ma'naviy muhit" tushunchasi juda ko'p elementlarni o'z ichiga olishini ta'kidlash lozim. Jumladan, har qanday davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning davr va barqaror rivojlanish talablariga mosligi, inson

qadri, huquq va erkinliklari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabatning darajasi, iqtisodiy barqarorlik, davlatning kambag'allik va ishsizlikni barham toptirish yo'lidagi sa'y-harakatlari, ijtimoiy himoya tizimining fuqarolar ehtiyojlariga mutanosibligi – bularning bari “ijtimoiy-ma'naviy muhit” tushunchasining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ayni paytda “ijtimoiy-ma'naviy muhit” tushunchasi, pirovard maqsadda, uning samarali amal qilishi ma'naviy-ma'rifiy omillarga, ayniqsa, bugungi tahlikali zamonda davlat va jamiyatning turli ichki va tashqi mafkuraviy-g'oyaviy tahdidlarga munosabatiga ham jiddiy ravishda bog'liqdir. Shu o'rinda mamlakat rahbarining quyidagi fikrlariga e'tibor berish lozim, deb o'ylaymiz: “Azaliy qadriyatlarimiz, otabobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan odob-axloq qoidalariga tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi globallashuv sharoitida ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolotga yetishga intilishiga e'tibor qaratish g'oyat muhim vazifamizdir. Avvalambor, “ommaviy madaniyat” ko'rinishida kirib kelayotgan turli xavf-xatarlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrashni, ularning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni unutmasligimiz kerak. Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayanamiz” [8, 266-b].

Haqiqatdan ham, “ijtimoiy-ma'naviy muhit” tushunchasining o'q ildizlaridan biri sifatida ma'naviy-ma'rifiy omillarga bee'tiborlik jamiyat va davlat miqyosida, fuqarolar tarbiyasida jiddiy salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bugungi dunyo shu darajada chigallashib ketdiki, nima yomon-u nima yaxshi, kim do'st-u kim dushman ekanligini anglab bo'lmay qoldi. Qadriyatlarning qadrsizlanishi tobora kuchayib bormoqda. O'z milliy madaniyati, urf-odatlarini, an'analarini eskilik qoldig'i deb, ularni inkor etish, milliy ruhiyatimizga mutlaqo mos kelmaydigan, g'ayriodatiy ko'nikmalarni shakllantirishga qilinayotgan harakatlar, zo'riqlashlarni “yangilik” deya ilohiylashtirish urfga aylanmoqda. Globallashuv inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalarini o'z domiga tortib bormoqda.

Bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning, ta'bir joiz bo'lsa ta'kidlash lozimki, hal qiluvchi omillaridan biri ham ma'naviyat, ma'rifat, tarbiya masalasi bo'lib turibdi. Shuning uchun ham mamlakat rahbariyati, keng jamoatchilik fuqarolarni, ayniqsa yosh avlodni turli ma'naviy-mafkuraviy tahdidlardan asrab qolishga muhim o'rin bermoqda. Demak, yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, "ijtimoiy-ma'naviy muhit" atamasi juda keng ma'noda tushuniladigan, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladigan, davlat siyosatida o'ta muhim o'ringa ega bo'lgan fenomen hodisa hisoblanadi. "Ijtimoiy-ma'naviy muhit"ning nechog'lik sog'lom yoki nosog'lomligi davlat va jamiyat taqdirida hal qiluvchi o'ringa ega deyish to'g'ri bo'ladi.

Mazkur masala ham ilmiy-nazariy, ham amaliy jihatdan alohida o'ringa ega ekanligini e'tiborga olgan holda, bizning nazarimizda unga quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq, deyish mumkin: **"ijtimoiy-ma'naviy muhit"—muayyan makonda va zamonda jamiyatda qaror topgan va kishilar ruhiyati, shaxs tarbiyasi, ijtimoiy kayfiyatida aks etadigan, uning mamlakatda amal qilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarga munosabatini belgilab beradigan holat"**, deb ta'riflash mumkin.

Ushbu ta'rif "ijtimoiy-ma'naviy muhit" tushunchasini o'zida to'liq ifoda eta olmaydi. Biroq bugun ushbu tushuncha hayotimizga to'liq kirib kelayotganini e'tiborga olgan holda, uning nazariy-konseptual jihatlarini yanada takomillashtirilishi mazkur sohada olib borilayotgan olim-mutaxassislarning sa'y-harakatlariga bog'liqligini ham qayd etishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz.

Ko'hna tarixga murojaat qilinsa shu narsa ma'lum bo'ladiki, har qanday davlat va jamiyatda hamda har doim ilg'or fikrli, ma'rifatli kishilar taraqqiyotning barqaror yo'lini topishga, fuqarolarda rozilik hissini shakllantirishga harakat qilganlar. Mazkur holatni o'zbek milliy davlatchilik tarixining har bir bosqichida kuzatish mumkin. Ijtimoiy-ma'naviy muhitining sog'lomligi davlat va jamiyat

umumiy taraqqiyotining zarur sharti ekanligi, ayniqsa, muqaddas “Avesto” kitobida o‘zining ishonchli dalilini topgan.

Unda keltirilgan har bir o‘git, fikr, g‘oya, ta’limotlar, jumladan, “Zabardast va qudratli bo‘lish uchun hamisha haqiqat va rostlikka muvofiq amal qilsang, zabardast va qudratli bo‘lasan”, “Haq so‘zdan o‘zga hech narsa haqida o‘ylama, haq so‘zdan o‘zga hech narsa to‘g‘risida suhbatlashma”, “Dunyoni taraqqiyot va kamolot sari harakatga soladigan kishilar bo‘lmog‘imiz lozim”, “O‘z nafsini yengib, jilovlab olmagan kishi, hech narsa ustidan g‘olib chiqolmaydi” kabi purma’no so‘zlarni aslida jamiyat ijtimoiy-ma’naviy muhitning sog‘lomligini ta’minlashga xizmat qiladigan qadriyatlar sifatida qabul qilish mumkin.

Turk xoqonligi davri tarixida ham jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaratish masalasiga keng e’tibor berilgan. Mazkur masalaga Vatanni sevish, samimiy bo‘lish, yolg‘ondan saqlanish, ezgu ishlar haqida qayg‘urish, adolatsizlikdan nafratlanish, odamlar farovonligi va tinchligi yo‘lida xizmat qilish kabi g‘oyalar asosida munosabatda bo‘lingan. Masalan, Bilga xoqon mamlakatning mustahkam, osoyishta bo‘lishi – xalqning moddiy farovonligiga bog‘liq, xalqning farovonligini ta’minlash esa davlat boshlig‘ining burchi, deb biladi. Ayniqsa, u boylikka hirs qo‘yishni qattiq qoralaydi. Boylikka hirs qo‘ygani uchun ham ba’zi xoqonlar, beklar xalqni boshi berk ko‘chaga olib kirib qo‘ydi [9, 73-b].

“Ijtimoiy-ma’naviy muhit” to‘g‘risida fikrlashmoqchi ekanmiz, hech shubhasiz uni diniy ta’limotlarsiz, ayniqsa tasavvuf qoidalarisiz o‘rganish, tahlil etish mumkin emas. Ma’lumki, tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega ta’limot bo‘lib, islom olamida sakkizinchi asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan.

Shu o‘rinda aytish kerakki, hazrat Muhammad Mustafo Sallallohu alayhi vasallam vafotlaridan keyin musulmonlar jamoasi ichida bo‘linish yuz beradi, ayniqsa, xalifa Usmon raziyallohu anhu zamonida boylikka ruju qo‘yish, qimmatbaho tuhfar bilan qarindosh-urug‘lar, yaqin do‘st-birodarlarni siylash rasm bo‘lgan. Ummaviy xalifaligi davriga kelib esa, saroy hashamlari, dabdabali bezaklar,

oltin-kumushga berilish, xazina to'plash avj oldi. Bu holat o'sha jamiyat hayotida ijtimoiy-ma'naviy muhitning beqarorligidan darak berar edi.

Islom ta'limotning shakllanishidagi eng muhim omillardan biri ham, aslida jamiyatda mustahkam ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlash, odamlar orasida adolat, yaxshilik, ezgulik fazilatlarini yoyishdan iborat edi. Bu esa, shubhasiz, komil inson g'oyasini keltirib chiqarda. Aziziddin Nasafiy komil insonga ta'rif berib yozadi: "Bilgilki, Komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatga yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif" [10, 133-b].

Ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi har doim ham jamiyatda o'zaro birlik, fikrlar yaxlitligi kabi omillarga ham bog'liqdir. Shu o'rinda jahon madaniyatida muhim o'rin egallaydigan, ma'naviyat va bilim xazinasini bo'lgan asarlardan biri, Nizomulmulkning "Siyosatnoma"sida jamiyat taraqqiyotida podshohlarning donolar va oqsaqollar bilan kengashlari haqida gapirgan quyidagi fikrlari zamonlar o'tganiga qaramasdan hali ham dolzarbligidan dalolat beradi: mashvarat va kengash ishtirokchilari o'z fikrlarini aytib, podshoh ra'yi bilan solishtirib, bir-birlarining fikrlarini eshitib va har taraflama o'ylab, keyin o'rtada ma'qullagan fikrni tanlaydilar. Ko'pchilik bo'lib qabul qilingan tadbir eng savobli bo'ladi va doim shunday yo'l tutish kerak. Biror ishni maslahatsiz amalga oshirish fikrning zaifligidan dalolat beradi [11, 93-b].

O'zbek milliy davlatchilik tarixining qaysi bosqichi bo'lmasin, barida ijtimoiy-ma'naviy muhit sog'lomligi, odamlar tinchligi va farovonligi haqida qayg'urilganini ko'rish mumkin. Mazkur masalaga klassik-mumtoz tarzda yondashuvni buyuk bobokalonimiz Amir Temurning "Tuzuklar"ida ko'rish mumkin. Aslida, "Tuzuklar" jahonda kamdan-kam bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladigan ta'limotlar sirasiga kiritish mumkin.

Shu o'rinda "Tuzuklar"dan ayrim misollar keltirish mumkin. "Ikkinchi maqola"ning to'rtinchi bandi: "davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga

asoslangan holda boshqardim". To'rtinchi band: "Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo'lib turdim. Har bir mamlakatning ahvolini, sipohu raiyat kayfiyatini, turish-turmushini, qilish-qilmishlarini, o'rtalaridagi aloqalarini xatga bitib, menga bildirib turishlari uchun diyonatli to'g'ri yozuvchi kishilarni belgiladim. Bordi-yu egri yozganlari menga bildirilsa, ularni jazoladim. Hokimlar-u sipohdan qay birini xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolat-u insof yuzasidan chora ko'rdim" [12].

Buyuk Sharq ta'limotida, ayniqsa, haqiqat, adolat, insonparvarlik g'oyalarining targ'ibotida, ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish bobida Kaykovusning "Qobusnoma" asarining ham o'rni benihoya katta. Asarning "Vazirlikning shart va rasmlari zikrida" qismida shunday deydi: "Ey farzand, agar vazirlik mansabiga yetsang, turli hisobot yo'llarini, muomala tariqini yaxshi o'rganib olg'il, podshohga hamma vaqt to'g'ri yo'llarni bayon qilg'il, insoflik bo'lg'il. Barcha molni o'z uyingga jam etmag'ilki, ko'p narsaga hirs qo'yg'on kishi ko'p narsadan ajralur" [13, 140-b]. Ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi masalasi davlat va millat taqdiri bilan uyg'unlikda ko'rilganini alohida ta'kidlash lozim. Qadim tariximizning turli davrlarida yaratilgan barcha asarlar, ta'limotlarda ushbu masalaga ustuvor ahamiyat berilganini ko'rish mumkin.

Xususan, o'n yettinchi asarni 30-yillarida tug'ilib, deyarli 100 yil umr ko'rgan Xoja Samandar Termiziy ham bu borada purma'no asarlar yaratgan. Shulardan biri "Dastur ul-mulk" asaridir. Asar podshohlarga qo'llanma sifatida tayyorlanadi va o'z vaqtida juda katta ijtimoiy nufuzga ega bo'lgan. Asarning "Podshoh marhamatidan mag'rur bo'lmaslik haqida"gi 9-faslida shunday yoziladi: "Azizim, Alloh amaldorlarga davlatni boshqarish uchun qulay vaziyat yaratdi, taqdir qo'li ular uchun ulug'lik chodirini, baxt koshonasini qurdi. Bundoq qulay bir paytda endi barcha amaldorlar shunday ulug', azim osoyishtalik, farovonlik, din-u imonga shon-shuhratday ulug', azim ishlar qilishlari kerakki, u xalqqa osoyishtalik, farovonlik, din-u imonga shon-shuhrat keltirsin, dunyoviy hayotni, ma'naviyatni ta'rif-tavsif etishga xizmat qilsin. Ularning tirikligida amalga oshirgan shu ulkan,

oliyjanob ishlari o'lganlaridan keyin ham gunohlarini yuvishga sabab bo'lsin" [14,89-b].

Yuqorida nomlari keltirilgan asarlar va ulardan olingan iqtiboslardan shu narsani anglash mumkinki, milliy davlatchiligimizning qaysi bosqichi bo'lishidan qat'iy nazar jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga ustuvor o'rin berilgan. To'g'ri, mutafakkir-olimlarimiz o'z asarlarida "ijtimoiy-ma'naviy muhit" tushunchasini ishlatmagan bo'lsalar-da, biroq, jamiyatda tinchlik, o'zaro hamkorlik, xalq farovonligi, ijtimoiy adolat, ijtimoiy kayfiyatni sog'lomlashtirish kabi muhim masalalar bilan bog'liq bo'lgan holatlar mazkur fenomen hodisa milliy tariximizda juda katta ahamiyat kasb etgan.

Shu ma'noda bugungi kunda Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans asoslarini barpo etish, mamlakat rahbarining aholi turmush farovonligini yaxshilash, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish yo'lidagi sa'y-harakatlarini "ijtimoiy-ma'naviy muhit" barqarorligi yo'lidagi muhim qadamlar sifatida baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. *Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston*. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. – 560 b.
2. Nazarov Q. *Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar lug'ati*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021. – 730 b.
3. Erkayev A. *Ma'naviyatshunoslik. Madaniyat ontologiyasi va fenomenologiyasi. Monografiya. 1-kitob*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018. – 480 b.
4. Qahhorova M. *Jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhit: muammo va yechimlar, dissertatsiya*. – Toshkent, 2012. – 36 b.
5. Yaxshilikov J., Muhammadiyev N. *Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi*. – Toshkent: Fan, 2017. – 384 b.
6. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi*. – Toshkent: "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2023. – 180 b.

7. Mirziyoyev Sh. *Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston*. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. – 512 b.
8. Mirziyoyev Sh. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 416 b.
9. Rahmon N. *Turk xoqonligi*. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 144 b.
10. Komilov N. *Tasavvuf*. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 448 b.
11. Nizomulmulk. *Siyosatnoma*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – 240 b.
12. Amir Temur. *Tuzuklar*. – Toshkent: Zilol buloq, 2020. – 144 b.
13. Kaykovus. *Qobusnoma*. – Toshkent: Istiqlol, 1994. – 173 b.
14. Termiziy. *Dastur ul-mulk*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1997. – 272 b.